



O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA OILA KONSEPTI VA UNING SEMANTIK XUSUSIYATI

Nasimova Shahnoza

Shayhontohur tumani Yangi asr maktabi

ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarida oila konsepti va uning semantik xususiyatlari haqida bayon qilingan. Dastavval kognitiv tilshunoslik xususida to‘xtalib o‘tilgan. So‘ngra konsept atamasi izohlanib, tushuncha va ushbu leksemaning farqli tomonlari ko‘rsatilgan. Maqolani yozish mobaynida oila konsepti va uning semantik xususiyatlari xalq maqollari asosida yoritilgan, hamda ularning sinonimik imkoniyatlari ochib berilgan. Izlanish davomida tavsiflash metodidan ham foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, tushuncha, oila konsepti, parema, sinonimiya, sinonimik qator.

Аннотация: В данной статье описывается понятие семьи и его смысловые особенности в узбекских народных пословицах. Во-первых, это обсуждалось с точки зрения когнитивной лингвистики. Затем поясняется термин концепт и показаны различия между концептом и данной лексемой. В ходе написания статьи на основе народных пословиц было выделено понятие семьи и его смысловые особенности, а также раскрыты их синонимические возможности. В ходе исследования также использовался описательный метод.



Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, концепт, семейный концепт, параме, синонимия, синонимический ряд.

Abstract: This article describes the concept of family and its semantic features in Uzbek folk proverbs. First, it was discussed in terms of cognitive linguistics. Then the term concept is explained and the differences between the concept and this lexeme are shown. During the writing of the article, the concept of family and its semantic features were highlighted on the basis of folk proverbs, and their synonymous possibilities were revealed. Descriptive method was also used during the research.

Key words: cognitive linguistics, concept, concept, family concept, parame, synonymy, synonymous series.

Kognitiv tilshunoslik – lingvistikaning zamonaviy yo‘nalishi bo‘lib, kognitiv fan, kognitiv psixologiya, neyropsixologiya va tilshunoslikdan bilim va tadqiqotlarni birlashtirgan lingvistikaning fanlararo bo‘limi hisoblanadi” [4] . Bu soha tilni o‘rganishga qaratilgan yondashuv bo‘lib, til, bilish va ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish va tushunishga qaratilgan. Ushbu yondashuvning asosiy printsiplari shundaki, ko‘p til hodisalarini umumiy kognitiv tamoyillar yordamida tushuntirishi mumkin [5] . Kognitiv so‘zi inglizcha (lotin) “cognize” so‘zidan olingan bo‘lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki “cognition” – bilish, tushinish kabi ma’nolarni beradi. O‘z o‘rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisadir [6] .

Kognitiv lingvistikaning tayanch tushunchalaridan biri konsept atamasidir. “Konsept” lotinchada “conceptus – tushuncha” ma’nosini bildiradi. Bugungi kunda ushbu termindan “tushuncha” so‘zining sinonimi sifatida foydalaniladi. Konsept va tushuncha leksemalarining farqli tomonlari shundaki, tushuncha ma’lum bir fikr yoki g‘oyani



ifodalaydi, konsept esa bu tushunchalarni birlashtirib, kengroq bir qamrovga ega bo'lgan tizimni anglatadi. Tushuncha ko'proq aniq va cheklangan, konsept esa kengroq va murakkab bo'lishi mumkin. Konsept atamasini ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o'z maqolasida qo'llagan. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir.” deb ta'rif bergan [1, 267-280]. Kognitiv atamalar lug'atida konsept atamasiga quyidagicha izohlanadi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. Ma'lumki bu leksema tilshunosligimizda XX asrning birinchi yarmida paydo bo'lib, 90-yillarga kelib keng qo'llana boshlangan. Konsept termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash, va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun “soyabon” vazifasini o'taydi. [2, 331].

Oila konsepti – bu insonlarning bir-biri bilan ijtimoiy, emosional va iqtisodiy jihatdan bog'lanishini anglatadi. Oila, odatda, ota-ona va ularning farzandlaridan iborat bo'lib, bu tuzilma ijtimoiy me'yorlar, an'analar va qadriyatlar asosida shakllanadi. Oila konsepti jamiyatning barqarorligi va rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ushbu tushuncha semantik jihatdan boy va murakkab bo'lib, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda o'ziga xos ma'nolarni kasb etadi.

Xususan, o'zbek xalq maqollarida oila konsepti va uning semantik xususiyatlari juda boy va chuqur ifodalangan. Quyidagi maqollar oilaning ahamiyatini, uning rollarini va tarbiyaviy jihatlarini yoritadi:

1. “Oila ahil bo'lsa tog'dagini oldirar, oila baxil bo'lsa , qo'ldagini oldirar” [3, 38]. Ushbu maqolda oilaning ijtimoiy va emotsional ahamiyati ta'kidlangan. Oila a'zolarining bir-birini qo'llab-quvvatlashi va birgalikda harakat qilishining muhim ahamiyatga ega ekanligi paremada ko'rsatilgan. Maqolda “tog'dagini oldirar” birimasi ahil oila har qanday qiyinchiliklarni yengishi va muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini bildirsa, “qo'ldagini



oldirar" birikmasi esa baxil oilada muammolar va befarqliklar ko'payishi mumkinligini anglatib kelgan. Maqolning sinonimiyasi: "Oila ahil bo'lsa, omad o'z oyogil bilan keladi".

2. "Qobil farzand jonga payvand" [3, 399]. Paremada farzand ota-onaning hayotidagi eng muhim va qadrli inson ekanligiga ishora qilingan hamda ularning yaxshi yoki yomon fe'l-atvori, xatti-harakati, gap-so'zi ota-onaga va boshqalarga tegadigan foydasi har tomonlama ifoda etilgan. Chindan ham, farzand oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchidir. Yuqoridagi parema "Qobil o'g'il otga mindirar, Noqobil otdan tushirar", "Qobil o'g'il rohat keltirar, Noqobil o'g'il", mehnat maqollari bilan birgalikda sinonimik qatorni hosil qiladi.

3. "Oltin-kumushning eskisi bo'lmas, ota-onaning bahosi bo'lmas" [3, 268]. Mazkur paremada ota-onaning qadri va ahamiyati to'g'risida so'z boradi. Oltin va kumush qimmatbaho metall bo'lib, ularning qiymati va go'zalligi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, ammo ota-onaning tarbiyasi va mehr-muhabbati hech qachon eskirmaydi, qadrsizlanmaydi. Ushbu otalar so'zi orqali dono xalqimiz oila va ota-onaning qadrini yuksak baholashga da'vat etgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek xalq maqollarida oila konsepti muhim ahamiyatga ega. Ular oilaning ijtimoiy barqarorlik, tarbiya va an'anaviy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarini ochib beradi. Umuman olganda, xalq maqollaridagi oila konsepti, nafaqat oila ichidagi munosabatlarni, balki jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalarni ham yoritadi, bu esa oilaning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YXATI

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М:Academia. 1997. – С.267-280
2. Кубрякова, Е. Когнитивный взгляд на природу частей речи // Словарь. Грамматика. Текст. – М., 1996. – 331 с.
3. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. “Маънолар махзани” (ўзбек маколларининг изохли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. – 448.
4. <https://en.wikipedia.org>
5. <https://www.cambridge.org>
6. <https://izoh.uz>